

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING KATTA VA  
TAYYORLOV GURUHLARDA FAZOVIIY TASSAVURLARNI  
SHAKLLANTIRISH USULLARI**

*Eshim Mardanov*

*O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika insitituti dotsenti*

*Sultanova Muattar Vasi qizi*

*O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika insitituti*

*Maktabgacha ta’lim yo’nalishi 3-kurs talabasi*

**Abstract:** The article presents the possibilities of using game technologies in the formation of spatial concepts among pupils of a preschool educational organization.

**Key words:** preschool education, child, spatial and quantitative, mathematical concept, game technology.

**Абстрактный:** В статье представлены возможности использования игровых технологий при формировании пространственных представлений у воспитанников дошкольной образовательной организации.

**Ключевые слова:** дошкольное образование, ребенок, пространственно-количественное, математическое понятие, игровая технология.

**Annotatsiya:** Maqolada maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida fazoviy tushunchalarni shakllantirishda o‘yin texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** maktabgacha ta’lim, tarbiyalanuvchi, fazoviy va miqdor, matematik tushuncha, o‘yin texnologiyasi.

Maktabgacha ta’lim sohasida Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev faol tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan ishlar, qabul qilinayotgan farmon va qarorlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Maktabgacha ta’lim vazirligining tashkil etilishi, Prezidentimiz tomonidan “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2707-sonli Qaror (2016-yil, 29-dekabr), «Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5198-sonli Farmon (2017-yil 30-sentabr), O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida” gi 528-sonli Qarori (2017- yil, 19-iyol), “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Kontsepsiyasi” kabi rasmiy hujjatlarning qabul qilinishi maktabgacha ta’lim tizimida ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda alohida o‘rin egallamoqda. Bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash o‘zining bir qator mezonlariga ega. Bu jarayonda bolalarni jismoniy, aqliy, ruhiy, irodaviy va ma’naviy jihatdan maktabga tayyorlash ularning maktab ta’limida

zo‘riqmasligi, ta‘limning uzluksizligi va samaradorligini ta‘minlovchi asoslardandir. Fazoviy tasavvurlarning to‘liqligi fazoviy obrazning tarkibiy tuzilmasi, ya‘ni elementlar to‘plami, ular orasidagi aloqadorlik, ularning dinamik nisbatini ongimizda ekrin idrok etish bilan xarakterlanadi. Hosil qilingan obrazda nafaqat obyektning tarkibiy tuzilmasiga kirgan elementlar, balki uning fazoviy joylashuvi ham aks ettiriladi. Shunda, ongimizda hosil qilingan geometrik obyektlar obrazida ularning shakli, kattaligi, uning boshqa obyektlarga nisbatan yoki uning qismlarining bir-biriga nisbatan o‘zaro joylashuvi haqidagi tasavvurlar va ma‘lumotlar o‘z ifodasini topadi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar bilan o‘tkazilgan tajribalardan shuni ko‘rish mumkinki, bolalar tevarak-atrofnii mo‘ljall olishga o‘rganayotganlaridayoq oddiy tushunchalardan murakkabroq, tevarak-atrof tushunchalariga o‘ta boshlaydilar. Ularning nutqlaridagi «shu yerda», «u yerda», «mana» kabi so‘zlari (biror predmetni ko‘rsatib, aytib) «yonida», «yaqinda», «yonma-yon» kabi yangi terminlar bilan, almashinishi buning yaqqol guvohi bo‘la oladi. Bola tevarak-atrofdi joylashgan obyektlar o‘rnini aniqlashga (oriyentirovka qilishga) o‘rganayotganida «yonma-yon» so‘zining ma‘nosiga keyinroq tushunadi, yoki «o‘rtada», «orasida» kabilarni o‘rganib bo‘lgach, keyinroq «atrofida», «chetida», yoki «yonidan», yana keyinroq borib bola bu so‘zlarni atroflicha tushuna boshlaydi va chap tarafdami yoki o‘ng tarafdami, farqlay boshlaydi. Lekin bolalarga tevarak-atrofnii mo‘ljall olishga o‘rgatish ishini turli yo‘llar va yo‘llanmalar bilan tushintirish kerakligini unutmash kerak. Tevarak-atrofnii anglash psixo-fiziologik mexanizmga ham bog‘liqdir, u inson ongidagi ko‘rish, eshitish, so‘zlash, eslab qolish, xotira kabi qobiliyatlar (analizatorlar) yordamida dinamik sistemadek saqlanib qoladi. Ayniqsa, bunda harakatlanuvchi analizatorlar va ichki his-tuyg‘ularining roli ahamiyatlidir. Bolalarning tevarak-atrof haqidagi lug‘atlarining boyib borishi ularning tevarak-atrofnii tushunishida ikkinchi signal sistemasining tenglashuvini ta‘minlaydi.

Katta guruhda maktabgacha yoshdagi bolalar qog‘oz varog‘ida mo‘ljall olishga o‘rgatila boshlanadi. Oldingi guruhlarning dasturlarida bunday vazifa yo‘q edi. Tarbiyachi rahbarligida bolalar ma‘lum miqdordagi buyumlarni ko‘rsatilgan yo‘nalishda: qog‘oz varog‘ining yuqori, pastki qismiga, chap qismiga, o‘ng qismiga jonlashtirish malakasini egallaydilar. Bunday topshiriqlar ham bulishi mumkin: varoqning chap qismiga 5 ta doiracha; o‘ngiga esa 1 ta ortiq doiracha qo‘y; varoqning pastki va ustki qismlariga 8 tadan uchburchak joylashtir. Topshiriqni bajarganidan keyin bola qanday shakllardan nechtasini joylashtirganini va qayerlarga joylashtirganini gapirib beradi. Bolalarni buyumlarning qog‘oz varog‘idagi, stoldagi, poldagi holatini belgilash uchun so‘zlarni to‘g‘ri, ma‘nosi bo‘yicha ishlatishga o‘rgatish kerak.

Yil oxiriga kelib bolalar o‘zlariga, boshqa odamlarga nisbatan o‘rnini so‘zlar bilan ifodalay oladigan bo‘lishlari kerak.

Olti yoshli bolalar o‘ng va chap tomonni boshqa odamga nisbatan aniqlashni xuddi o‘ziga nisbatan o‘ng va chap tomonini aniqlagandek aniqlashini yaxshi tushunib olmoqlari kerak (chap tomon o‘ng qo‘l turgan tomonda; o‘ng tomon chap qo‘l turgan tomonda). Aniqlashning samarali usuli xayolan o‘rtog‘ining orqasiga turishdan iboratdir. Shunday qilib; “yuzi bilan orqasiga” boshlang‘ich holatidan, ya’ni bola o‘rtog‘ining orqasida turgan holatida boshqa odamga nisbatan o‘ng va chap tomonni aniqlash kerak; shundan keyin “yuzma-yuz” holatida, ya’ni boshqa bola qarshisiga turib, “o‘ng-chap”ni farqlash kerak.

Keyinroq esa xar qanday boshlang‘ich holatda, hatto o‘rtog‘i orqasi bilan turganda ham, “o‘ng-chap” tomonlar aniqlanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi 2019 yil 8 maydagi PQ-4312- son Qaroriga 1-ilova.

2. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. Tuzuvchilar: Grosheva I.V., Yevstafeva L.G., Mahmudova D.T., va boshqalar. – Toshkent, 2018 yil.

3. E.M Mardonov “Matematik tassavurlarni shakllantirish nazariyasi va Metodikasi” Samarqand 2021

4.Egamberdieva N. Ijtimoiy pedagogika. – Toshkent: A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.

5. Қодирова Ф., Тошпўлатова Ш., Аъзамова М. Мактабгача педагогика. – Тошкент: “Маънавият”, 2013.

6. Sodiqova Sh.A. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: Tafakkur sarchashmalari, 2013.